

Adabiyotlar:

1. Solovyova N. I. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirishda mintaqaviy bilimlarning roli. 2015-yil
2. Safonova V.V. Ijtimoiy-madaniy yondashuv: asosiy ijtimoiy-pedagogik va uslubiy qoidalar / V.V. Safonova // Maktabda chet tillari. – 2014. – 11-son.
3. Pidkasisty, P.I. Pedagogika: darslik. Pedagogika universitetlari va pedagogika kollejlari talabalari uchun qo'llanma / P.I.Fagot // . - M: Rossiya Pedagogika Jamiyati, 2018-yil.
4. Raxmonova G. talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish//Materiali konferensiy MSND.–2021.
5. Nigmatova M. M. Kompetentli shaxsni shakllantirish yo'llari //BBK 71.0 I74 Tahririyat Mas'ul muharrir. – 2019. – B. 191.

PEZIOME

Ushbu maqolada talabalarda axloqiy-madaniy sifatlarni rivojlantirish zaruriyati, axloqiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari va ularni ma'naviy, madaniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan yetuk mustaqil fikrlovchi barkamol avlod qilib voyaga yetkazishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan.

PEZIOME

В данной статье рассмотрены необходимость развития нравственно-культурных качеств у студентов, методы развития нравственно-культурных компетенций, а также научно-методические основы воспитания из них зрелых самостоятельных мыслителей в духовном, культурном, нравственном, политическом, правовом, экономическом отношении, в социальном плане получили развитие.

SUMMARY

In this article, the need to develop moral and cultural qualities in students, the methods of developing moral and cultural competences, and the scientific and methodological basis of raising them to be mature independent thinkers spiritually, culturally, morally, politically, legally, economically, socially, have been developed.

KLASTER MODELI ASOSIDA O'QUVCHILAR LOYIHALASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Abdirimova I.K.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi p.f.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: klaster, klaster tamoyillari, loyihalash faoliyati, pedagogik ta'lim klasteri, klaster yondashuv, innovatsion texnologiya, innovatsion yondashuv, ta'lim tizimi, loyiha.

Ключевые слова: кластер, принципы кластера, проектная деятельность, кластер педагогического образования, кластерный подход, инновационная технология, инновационный подход, образовательная система, проект.

Key words: cluster, cluster principles, project activities, teacher education cluster, cluster approach, innovative technology, innovative approach, educational system, project.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ta'lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga oid bir qator qarorlar qabul qilindi. Ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'limning barcha turlari va bosqichlarida samaradorlikni oshirish va takomillashtirish jahon amaliyotida yangi mexanizm sifatida qaralayotgan klaster modelini yanada rivojlantirish natijasida ta'lim berishning yangi imkoniyatlarini topish, subyektlarning manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ularning kutilayotgan natijalarini kafolatlash, shaxsning sifatli ta'lim olishiga xizmat qiluvchi yangicha yondashuv va metodlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Potensial ish beruvchilar va jamoatchilikning talabiga mos ravishda ta'lim tizimi o'zining maqsadli yo'naltirilganligi va uning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan o'quvchilar loyihalash faoliyatiga erishish ustida ish olib borishi lozim. Bugungi kunda butun dunyoda loyihaviy ta'limga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aynan loyihaviy ta'lim o'quv, tashkiliy-boshqaruv, bunyodkorlik, izlanuvchanlik xususiyatlariga ega bo'lgan o'quvchi shaxsini shakllantirish muammosiga yangicha yondashish imkonini beradi. Ta'limga loyihalash metodining kirib kelishi XIX asrga borib taqaladi.

Rossiya pedagogika ensiklopediyasida loyiha metodi pedagogik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilinib, bunda "O'quvchilar muntazam murakkablashib borayotgan amaliy bilimlar, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish haqidagi qarashlar tizimi" deb ta'riflanadi. [2]

"Klaster" nazariyasi esa dastavval iqtisodiyot tarmog'ida yuzaga keldi. "Klaster" nazariyasining ko'p qirraliligi, uning zahirida bir nechta nazariy yondashuvlar shakllanishiga yo'l ochadi. Ta'lim tizimida loyiha faoliyatiga klaster yondashuvning amalga oshirilishi avvalo tizimga innovatsiyalarni dadil qo'llash, hamkor tashkilotlar bilan birga innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali yaxshi samara beradi. Klaster bu yagona iqtisodiy, ijtimoiy va ta'limiy makon bo'lib, uning asosida innovatsion g'oyalar mujassamlashgan. Klaster tizimining asosiy bo'g'ini sifatida o'z faoliyatida innovatsiya siyosatini asos qilib olgan OTM yoki infratuzilmaga boy universitet qaralishi mumkin, sababi bu yerda yangi bilimlar, ilmiy kashfiyot va ixtirolar tez va samarali taqsimlanadi. [3]

Klaster modeli asosida o'quvchilarning loyihalash faoliyatini shakllantirish muayyan pedagogik tizim bo'lib, maqsaddan natijaga, faoliyatdan qobiliyatga, ma'limotdan bilimga, bilimdan tajribaga erishish bosqichlariga yo'naltirilgan jarayonni o'z ichiga oladi. Pedagogik tizim o'zaro tashqi muhit bilan, pedagogik jarayonning ishtirokchilarini shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan ma'naviy va moddiy imkoniyatlar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini ta'minlovchi butunlikdir.

O'quv materialining mazmuni faoliyatni rejalashtirish, loyihadagi topshiriqlarni bajarishda texnologiyalarni qo'llash, ma'limotlar orasidan eng maqbullarini tanlab olish va foydalanish, loyiha faoliyatining natijalarini taqdim qilish usullari, jamoada vazifa va majburiyatlarni taqsimlash va bajarish, hamkasblar va hamkorlar bilan birgalikda ishlashni o'z ichiga oladi. O'qitish vositalari sifatida o'quv qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali qurollar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish vositalari, o'qitishning texnik vositalarini kiritish mumkin. O'qitish metodlari sifatida an'anaviy og'zaki (verbal) usullar, tadqiqot, muammoli, mantiqiy va savol-javob (evristik) usullaridan foydalanishimiz mumkin. Noan'anaviy usullar sifatida ijodiy o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, loyiha faoliyati davomida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot natijasida munosabatlarda, faoliyat yo'nalishlarida, metodlarda tarkibiy o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Masalan, faoliyat davomida ishtirokchilar o'rtasida ierarxik – o'qituvchi fikrining yetakchi o'rinda bo'lishi va noierarxik – munosabatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayon davomida faoliyatni amalga oshirishga yetishmayotgan resurslar o'quvchilar, o'qituvchilar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar ham jalb qilinadi. Maktab o'quvchilarining loyiha faoliyatini tashkil qilishda pedagogik oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik masalasi alohida bo'g'in sifatida qaraladi. Ta'lim klasteri tushunchasi ostida "Maktab, litsey, oliy ta'lim" hamkorligiga e'tibor qaratadi. Aynan shunday usul pedagogik kadrlarni tayyorlashda sifat o'zgarishini yasashga imkon beradi. [4]

Bunda maktab o'qituvchilarining tegishli kafedra (ta'lim yo'nalishi) talabalari bilan munosabati alohida ahamiyatga ega.

Maktab o'qituvchilarining tegishli kafedra talabalari bilan munosabati tahlili. Maktab o'qituvchilarining kafedra talabalari bilan munosabati - ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Maktab o'qituvchisi talabalarga umumiy o'quv maqsadini bayon qiladi, alohida topshiriqlarni taqsimlaydi va ularning bajarilishi uchun mas'ul talabalarni alohida ajratadi, ish rejasini tuzadi, sinf ichida o'quvchilar bilan talabalarning o'zaro samarali aloqada bo'lishini ta'minlaydi, assistent o'qituvchi bilan jarayonni nazorat

qiladi. Talabalarning loyiha faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari avvallari amaliyotda o'tagan passiv kuzatuvchilik faoliyatidan keskin farq qiladi. Talabalar loyiha faoliyatida maktab o'quvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'lib, duch kelgan muammolarga amaliyotda passiv kuzatuvchi sifatida o'ttirgan tajriba va bilimlariga tayanib reallikda qo'llaydilar. Ushbu jarayonda oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar klaster usulida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshiruvchi, bajaruvchi resurs vazifasini bajaradi. Talabalar o'zlari birlashtirilgan professor-o'qituvchi, assistent-o'qituvchi, maktab o'qituvchisi bilan hamkorlikda maktablarda tashkil etilgan maktab laboratoriyalarida qiziqishlari, bilim darajasi, o'zlashtirishi va liderlik qobiliyatlariga tayanib passiv kuzatuvchilikdan aktiv kuzatuvchi darajasiga o'tadi. Bu jarayonda loyiha ishtirokchisi bo'lgan talabalarning yoshi, tahsil oadigan bosqichi inobatga olinmaydi, talabaning iqtidori va fanlardan bilish darajasi tekshirilib, loyiha faoliyatiga jalb qilinishi ijobiy samara beradi. Loyiha faoliyati yakunida klaster usulida tashkil etilgan ijtimoiy hamkorlik natijasida talabalarda talabalik davridanoq mentor, tyutor, moderator, fasilitator kabi zamonaviy pedagogik qobiliyatlar shakllanishiga erishiladi.

Ilmiy tadqiqotchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat tahlili. Ilmiy tadqiqotchi o'quvchilarga umumiy maqsadni tushuntiradi, topshiriqni taqsimlaydi, ish rejasini tuzadi va ishning borishini nazorat qiladi. Maktab o'qituvchilari ilmiy tadqiqotchi bilan birgalikda ishni tashkil qiladi, sinf ichida o'zaro muloqotning samarali usullarini qo'llashni yo'lga qo'yadi.

Kafedra o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotchilar bilan munosabati tahlili. Ilmiy tadqiqotchi bu yerda loyihaning koordinatori, ya'ni oliy ta'lim bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshiruvchi sifatida ishtirok etadi.

Ilmiy tadqiqotchining talabalar bilan munosabati tahlili. Bu ichki hamkorlarning munosabati sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotchi loyiha faoliyatini olib borar ekan, talabalar va o'quvchilar bilan olib borilgan mavjud tajriba va resurslarga tayanib ijobiy natijaga erishish ustida ishlaydi. Shu tariqa pedagogik tizimning barcha elementlari o'rtasidagi subordinatsiyalashgan – kichikning kattaga bo'ysunishi munosabatlari ilmiy rahbarni rasmiy nazoratchi ekanligini ko'rsatadi.

Umuman, o'quvchilarning loyihalash faoliyatini shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlashtirish, ularning bajarilishini ta'minlash hududiy ta'lim klasterlarini yo'lga qo'yishning muhim shartlaridan biridir. Hududiy yaxlitlik, maqsadlarning mushtarakligi, o'zaro nazorat va har bir subyektning mazkur faoliyat turidan ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi manfaatdorligi mazkur muammoning dolzarbligini belgilaydi. O'quvchilarning loyihalash faoliyatini to'g'ri tashkil qilish hamkor ta'lim subyektlarining xayrixohligiga va qo'llab-quvvatlashiga bog'liq ekanligi uning klaster modeli asosida amalga oshirilishi to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O'zbekiston, 2016.
2. Психологический словарь / под ред. В.П. Зинченко, Б.Г. Мещерякова. М.: Педагогика-Пресс, 1997. 440 с.
3. Разуваев И.Г. Особенности взаимодействия финансового и интеллектуального капитала в российской экономике: автореф. дис. ... канд. эконом. наук: 08.00.01. Самара, 2007. 24 с.
4. Залялова А.Г. Региональная модель подготовки педагогических кадров в условиях образовательного кластера: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. Казань, 2010.
5. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.
6. Болоний Г.Б., Лыскова В.Ю. Кластерный подход и его использование в научно-педагогических исследованиях. Вестник ТГУ, т.16, вып.1, 2011.
7. Щербо И. Второе пришествие метода проектов //Директор школы. 2003. №3. – С. 25-32.

РЕЗЮМЕ

Maqolada loyiha faoliyati va pedagogik ta'lim klasteri tushunchalariga ta'rif berilib, klaster usulini ta'lim jarayonida o'quvchilarning loyihalash faoliyatida qo'llashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Loyihalash faoliyatida klaster usulidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье раскрыты понятия проектной деятельности и кластера педагогического образования, показана важность использования кластерного метода при проектировании деятельности студентов в образовательном процессе. Научно выяснено, что использование кластерного метода в проектной деятельности играет важную роль в повышении эффективности образования.

SUMMARY

The article reveals the concepts of project activity and the teacher education cluster, and shows the importance of using the cluster method in designing student activities in the educational process. It has been scientifically found that the use of the cluster method in project activities plays an important role in increasing the effectiveness of education.

MARKETING TADQIQOTLARIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Ortiqov O.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
iqdisodiyot fanlari nomzodi

Tayanch so'zlar: bozor iqtisodiyoti, marketing, korporativ faoliyat, taklif, boshqaruv, bosqichli marketing, intellekt bozori.

Ключевые слова: рыночная экономика, маркетинг, корпоративная деятельность, предложение, менеджмент, сценический маркетинг, интеллектуальный рынок.

Key words: market economy, marketing, corporate activity, offer, management, stage marketing, intellectual market.

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining yangi sharoitida marketingning ijtimoiy-iqtisodiy roli yanada oshdi. Marketing nafaqat mahsulotlarni sotish san'ati, balki iste'molchilarga qimmatbaho tovarlarni taqdim etish va ularning hayot sifatini yaxshilashdir. Mahalliy tadbirkorlar marketing sohasida yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmaganliklari sababli ishlab chiqarish, savdo va boshqaruv vazifalarini bajarishda turli manbalar ko'rsatmalariga tayanadilar. Bu korporativ faoliyat samaradorligining pasayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda zamonaviy marketing qimmatli tizimga aylandi, shuning uchun kompaniyalar bozor segmentatsiyasi masalalariga katta e'tibor berishlari kerak, chunki bozor segmentatsiyasi marketing tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biridir. Raqobatdagi muvaffaqiyatning asosiy sharti ham segmentatsiyadir. Ilgari marketing birinchi navbatda mahsulotga e'tibor qaratgan va marketing strategiyalari orqali ko'plab iste'molchilarni jalb qilishni maqsad qilgan. Biroq, bugungi kunda differentsiatsiyaning asosiy maqsadiga erishish uchun iste'molchilarning differentsiatsiyalangan ehtiyojlarini qondirish kerak. Hozirgi vaqtda bozor segmentatsiyasi orqali ma'lum bir iste'molchilar guruhiga ega bo'lgan kompaniya va tashkilotlar barqaror rivojlanmoqda. Ularning muvaffaqiyati sababi bozorda yetakchi o'rinni egallash, bozorni maqsadli segmentlarga taqsimlash, har bir mijozning ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularni maksimal darajada qondirish yo'llarini topishdadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iste'molchilar ehtiyojlarini maksimal ravishda tadqiq etish va avvaldan bilib olish uchun, marketing tadqiqotlariga ko'p xarajat qilishga to'g'ri keladi. Ideal sharoitda iste'molchilarga aynan shu mahsulot yoki uni ishlab chiqaruvchi korxona (kompaniya) ishqiboziga aylanishi kerak, shundagina uni mahsulotga nisbatan yuqori darajadagi ishonchi, yondashuvi haqida so'z yuritish mumkin: "bugungi kunda barchaga oz bo'lsada yoqadigan mahsulotlar uchun bozorlar mavjud emas, faqatgina kimgadir juda yoqadigan mahsulotlar uchun bozorlar bor". Bu o'rinda davlatimiz rahbarining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha, "...ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish" ni ifodalovchi ustuvor yo'nalishi